

**O'zbekistonda advokat xizmatiga haq to'lashning nazariy va huquqiy asoslari****Sadinov Shohboz Erali o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti, Magistratura
va sirtqi ta'lim fakulteti, “Advokatlik faoliyati”
yo'nalishi magistranti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: shaxbooz2001@gmail.com

Tel: +998 93 667 11 66

Annotatsiya: mazkur tezisda O'zbekistonda advokat xizmatlariga haq to'lashning nazariy va huquqiy asoslari IMRAD strukturasida yoritilgan. Tadqiqotda amaldagi qonunchilik — xususan, “Advokatura to'g'risida”gi Qonun asosida advokat xizmatlari uchun haq to'lash tartibi o'rganilgan. Qiyosiy tahlil usuli orqali AQSh singari huquqiy jihatdan ilg'or davlatlarning tajribalari bilan solishtirish olib borilib, ularning afzallik jihatlari tahlil qilingan. Natijalarda O'zbekistonda mavjud tartibda shartnomaviy yondashuv asosiy rol o'ynashi, biroq minimal stavkalar yo'qligi muammoli ekani ta'kidlangan. Muhokama qismida adolat, shaffoflik va ijtimoiy himoya tamoyillari asosida yangi mexanizmlarni joriy etish taklif etilgan. Xulosa sifatida, xizmat narxini belgilashda normativ mezonlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurligi asoslab berilgan

Kalit so'zlar: advokat xizmati, haq to'lash mexanizmi, nazariy asoslar, huquqiy tartibot, minimal ta'riflar, shartnoma asosida to'lov, bepul yuridik yordam, xalqaro tajriba

Abstract: This thesis covers the theoretical and legal foundations of payment for lawyer services in Uzbekistan within the IMRAD structure. The study examined the current legislation - in particular, the procedure for paying for lawyer services based on the Law “On Advocacy”. Through the comparative analysis method, a comparison was made with the experience of legally advanced countries such as the USA, and their advantages were analyzed. The results indicate that in Uzbekistan, the contractual approach plays a



key role in the current procedure, but the lack of minimum rates is problematic. In the discussion section, it is proposed to introduce new mechanisms based on the principles of justice, transparency, and social protection. In conclusion, the necessity of developing and implementing regulatory criteria for determining the cost of services is substantiated.

Keywords: legal services, mechanism of payment, theoretical foundations, legal order, minimum definitions, payment on a contractual basis, free legal assistance, international experience

Kirish. Advokatlik xizmati jamiyatning huquqiy himoya tizimida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda advokatlarga bo‘lgan talab ortib, ularning xizmatidan foydalanishning adolatli va samarali mexanizmini ta‘minlash zarurati oshdi. Advokat xizmatlari uchun to‘lov mexanizmi adolatli va iqtisodiy asoslangan bo‘lishi yuridik yordam sifatini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro miqyosda (masalan, AQShda) advokat xizmatlari uchun qat’iy ta’rif tizimi mavjud emas, balki to‘lovlar xizmat hajmi va natijasiga qarab erkin belgilanadi[1]. Shu sababli, O‘zbekistonda ham advokat xizmati uchun haq to‘lovining nazariy va huquqiy asoslarini xalqaro tajriba doirasida o‘rganish muhimdir.

Advokatlik faoliyatining huquqiy mohiyati va ijtimoiy ahamiyati, unga haq to‘lash masalasini chuqur nazariy tahlil etishni taqozo etadi. Mazkur jarayon nafaqat iqtisodiy balki, huquqiy etika, professionalizm va ijtimoiy adolat tamoyillari kesishmasida ko‘rib chiqilishi kerak. Zamonaviy huquqshunoslikda advokat xizmatiga haq to‘lashning huquqiy tartibga solinishi, avvalo. Advokatlik kasbining ikki asosiy qutbi – “professionalizm ideali” va “bozor munosabatlari talablari” o‘rtasidagi muvozanatni topish zaruratidan kelib chiqadi.

Huquqiy tartibga solish – bu ijtimoiy munosabatlarga qonuniy me‘yorlar va qoidalar orqali maqsadli ta’sir etish jarayoni hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, bu davlat(boshqa vakolatli organlarning)ning ma’lum bir sohadagi faoliyatni yoki xatti-harakatlarni



qonunlar, kodekslar, qarorlar va boshqa normati huquqiy hujjatlar orqali belgilab qo'yishi, cheklashi, ruxsat berishi yoki majbur etishidir.

Huquqiy tartibga solish jarayoni advokat xizmatlariga haq to'lashning asosiy prinsiplarini belgilash, ushbu xizmatlar narxini shakllantirishning shaffof mexanizmlarini yaratish, hamda to'lovlarni undirish va ijro etish bo'yicha tartibotlarni o'rnatishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, advokat xizmatlari uchun to'lovni huquqiy jihatdan tartibga solish ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, korrupsiya xavfini kamaytirish hamda aholiga sifatli huquqiy yordam ko'rsatishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Tezida mavjud qonunchilik hujjatlari, yuridik maqolalar va xalqaro me'yorlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining Advokatura to'g'risidagi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlari, shuningdek BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning yuridik yordamga oid tavsiyalari o'rganildi. Ushbu tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil va solishtirma-huquqiy usullar qo'llanildi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasida advokat xizmatlari uchun to'lov advokat bilan mijoz o'rtasida erkin kelishilgan shartnoma (bitim) asosida amalga oshiriladi[3]. Advokatning xizmat hajmi, muddati va oladigan haqi shartnomada aniq ko'rsatiladi. Advokatlar palatasi advokatlik tuzilmalariga kelib tushgan daromadlar hisobidan advokatlar mehnatiga haq to'laydi; agar mablag' yetishmasa, palata hududiy bo'limlari tomonidan qo'shimcha mablag' ajratiladi[3]. Shartnomada advokatga to'lanadigan haq va xarajatlarni qoplash tartibi belgilanishi ham qonun bilan nazarda tutiladi (bu mablag'lar advokatlik tuzilmasining kassasiga yoki bank hisobiga o'tkazilishi shart).

Davlat kafolati doirasida bepul yuridik yordam mexanizmi ham amalda. Jinoyat protsessual kodeksi va “Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi Qonunga muvofiq, ayblanuvchining moliyaviy qobiliyatsizligi sababli advokat tayinlangan taqdirda, advokatga to'lanadigan haq Vazirlar Mahkamasining belgilagan tartibida davlat budjetidan qoplanadi[4].



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qonunchiligi advokat va mijoz manfaatlarini himoya qiluvchi bitim negizida to'lov tartibini belgilaydi, biroq tizimni yanada takomillashtirish zarurati seziladi. Ilmiy adabiyotlarda advokat xizmatlari uchun minimal ta'riflar belgilash, shuningdek kambag'allarga yuridik yordamdan foydalanishlari uchun subsidiya ajratish kabi chora-tadbirlar tavsiya etilgan[2, p 272]. Bunday takliflar advokatura institutining barqaror rivojlanishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga hissa qo'shadi. Shuningdek, xalqaro amaliyotga qaraganda (masalan, ABA Model Qoidasi 1.5), advokat xizmatlari uchun to'lovlar miqdori xizmat hajmi va natijasiga mos, asossiz yuqori bo'lmashligi lozim[1]. O'zbekistonda ham bu prinsipni tatbiq etish orqali mijozlar manfaatlarini himoya qilish va yuridik xizmatlar bozoridagi adolatni ta'minlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda advokatlik xizmatlari uchun haq to'lash nazariy va huquqiy asoslari asosan qonunchilik hujjatlarida belgilangan va bozor mexanizmlariga tayangan. Advokat va mijoz o'rtasidagi erkin shartnomalar asosida to'lov miqdori aniqlanadi. Amalda shartnomalarning shaffofligi va to'lov tartibining qonun bilan muvofiqligi yuridik xizmatlardan foydalanishga bo'lgan ishonchni oshiradi. Biroq, tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan adolatsizliklarni bartaraf etish maqsadida minimal ta'riflar, standart bitimlar va ijtimoiy kafolatlar joriy etish kabi qo'shimcha chora-tadbirlar zarur. Ushbu takliflar advokatura faoliyatini mustahkamlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mastering ABA Model Rule 1.5, Sarah Lee. June 23, 2025.
2. Advokat xizmatiga haq to'lash tartibini takomillashtirish imkoniyatlari. Sadinov Shohboz Erali o'g'li. International conference on Modern Science and Scientific Studies. June 20 2025, p 268-274.
3. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.
4. "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun.



5. <https://www.numberanalytics.com/blog/mastering-aba-model-rule-1-5#:~:text=ABA%20Model%20Rule%201,of%20fees%2C%20including%20hourly%2C%20flat>
6. <https://econfseries.com>
7. <https://numberanalytics.com>
8. <https://gov.uz>
9. <https://lex.uz/>